

ARAB TILIDA SONNING ISHLATILISHI VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Mohizarbegim ERGASHEVA

TDSHU, arab filologiyasi yo'nalishi

2-bosqich (kunduzgi) arab-ingliz 1-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: y.f.n., dots. B. Begmatova

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida sonlarning ishlatilishi va ularning grammatik xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Arab tilidagi sonlar morfologik va sintaktik jihatdan murakkab tizimga ega bo'lib, ularning sanalmish bilan moslashuvi, e'rob holatlari va jumladagi sintaktik vazifalari alohida o'rganiladi. Shuningdek, sonlarning arab tilida qo'llanilishidagi istisnolar va murakkab qoidalar tahlil qilinib, ularning amaliy nutqdagi o'rni yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: arab tili, sonlarning tasnifi, sanalmish, e'rob, grammatik qoidalar, sintaktik vazifa, istisnolar, muftado=ega, xabar=kesim, marfu'=bosh kelishik, mansub=tushum kelishigi, majrur=qaratqich kelishigi, kalom=gap/tugal fikr, kalima=so'z, muzakkar va muannas jins kategoriyalari, mabniy,

Tillar inson tafakkurining o'ziga xos ko'rinishidir va ularda turli xil birliklar mavjud. Ayrim tillarda qoidalar oson, sodda; ayrimlari esa biroz va hatto ancha murakkab, o'rganish uchun ko'proq harakat talab qiladi. Arab tili ham son tizimi jihatidan murakkab va qoidalar bilan boy bo'lgan tillardan biri hisoblanadi. Arab tilida sonlarning o'ziga xos grammatik shakllanishi, sanalmish bilan bog'lanish qonuniyatlari hamda gap tarkibidagi ahamiyati o'ziga xos tizimni tashkil etadi. O'zbek, ingliz va rus tillaridagi sonlar va ularning qoidasi arab tilidagi son qoidalaridan sezilarli darajada farqlidir.

Son – biron bir predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi so'zlar turkumi bo'lib, arab tilida murakkab grammatik qoidalarga ega. Arab tilida sonlar jins (muzakkar/muannas), e'rob¹ va sanalmish bilan uyg'unlashish jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular nafaqat hisob-kitob uchun, balki adabiy nutq va Qur'oni karim oyatlarida ham keng qo'llaniladi. Sonlarning to'g'ri ishlatilishi arab tilida grammatik aniqlik va mantiqiy izchillikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Sonlarning nutq va grammatika tizimidagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Ma'no aniqligi – Sonlar miqdor va tartibni aniq ifodalab, gapning tushunarli bo'lishiga yordam beradi (uchta kitob – ثلاثة كتب)

¹ E'rob – aynan bir omil tufayli so'z oxirgi harakatining o'zgarishi. O'zbek tilida kelishiklarga to'g'ri keladi.

2. Grammatik uyg'unlik – Sanalmish bilan jins va e'rob (so'zning oxirgi harakati) jihatidan moslashishi yoki maxsus istisnolarga amal qilishi talab etiladi.
3. Sintaktik rol – Muftado, xabar, aniqlovchi yoki hol vazifasida kelishi mumkin (Talabalar beshtadir. – لطلاب خمسة). Bu gapda son xabar, ya'ni kesim vazifasidadir.
4. Murakkab tuzilma – 3–10 sonlar sanalmish bilan teskari jinsda, 11–12 mos jinsda kelishi kabi qoidalar mavjud. (Uchta kitob – ثلاثة كتب) → kitob so'zi muzakkar jinsida bo'lgani uchun unga sonning muannas jinsidagi shakli ishlatilgan. Yoki: (To'rtta mashina – أربع سيارات) → mashina so'zi muannas jinsida ekanligi uchun uning son qismi muzakkar jinsda bo'lgan.
5. Nutqning aniqligi – Sonlarning to'g'ri ishlatilishi rasmiy nutq va yozma matnlarda grammatik izchillikni ta'minlaydi.

Endi esa sonlarning, xususan, sanoq sonlarning grammatik xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

1 va 2 sanoq sonlarini ifodalashda, odatda, sonlar ishlatilmaydi. Chunki sanalmishning o'zida uning bitta yoki ikkita ekanligi aniq bo'lib turadi. Masalan:

Bitta ruchka (قلم واحد)

Ikkita ruchka (قلمان اثنتان)

Yuqoridagi misollarda „qalamun“ va „qalamani“ sanalmishlarining o'zini ishlatsak ham, uning bitta/ikkita ekanligi aniq bo'lib qolaveradi. 1 va 2 sonlari sanalmish bilan jinsda to'liq moslashadi, ya'ni son muzakkar bo'lsa, sanalmish ham muzakkar; aksincha bo'lsa, sanalmish muannas bo'ladi. Lekin predmetning bir yoki ikkitaligi ta'kidlansa, اثنتان/اثنتان واحدة, qo'shilishi kerak.

1 va 2 sonlari sanalmish otdan keyin qo'yiladi va sanalmish ot bilan moslashgan aniqlovchi kabi to'rt jihatda (jinsda, sonda, kelishikda, holatda) moslashadi. Masalan: Menda bitta kitob bor. لي كتاب واحد: Bosh kelishik, muzakkar, birlik, noaniq holatda. Bitta kitob sotib oldim. اشتريتُ كتاباً واحداً: Tushum kelishigi, muzakkar, birlik, noaniq holatda.

Eslatma! أحد so'zi gapda «kimdir» gumon olmoshi yoki inkor gaplarda «hech kim» ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan:

Oldinga kimdir keldi. – جاءني أحد.

Oldinga hech kim kelmadi. – ما جاءني أحد.²

3–10 gacha bo'lgan sanoq sonlar sanalmishning birlik sondagi jinsiga qarama-qarshi jinsda bo'ladi, sanalmish esa ko'plik, noaniq, qaratqich kelishigida keladi. Ular odatda izofa birikmasini hosil qiladi:

ثلاثة طلاب – uchta talaba

ثلاث طالبات – uchta toliba

² N.Ibrohimov va M.Yusupov. Arab tili grammatikasi I jild. O'quv qo'llanma. T., 1997.

Sanalmish aniq holda bo'lishi mumkin:

. رأيتُ أربعَ الطالبات. (o'sha) to'rtta tolibani ko'rdim.

3-10 bo'lgan ma'lum sonlarni bildiruvchi „bir nechta“ (بعض/بضعة) so'zi ham xuddi 3-9 sonining qoidasiga ko'ra izofa hosil qiladi. (بضع لِيَالٍ، بضعة أَيام)

11–19 bo'lgan sonlar esa sanalmish bilan quyidagicha moslashadi:

a) 11 soni sanalmish bilan jinsda moslashadi, lekin har uch kelishikda ham nasb holatida bo'ladi. Chunki u fathaga mabniydir.³ Sanalmish esa birlikda, noaniq, tushum kelishigida keladi. 11 sonini hosil qilayotganda 1 soni uchun إحدى و إحدى shakli ishlatiladi. Masalan: 11 ta talabani ko'rdim. – رأيتُ أحدَ عشرَ طالباً.

b) 12 soni ham sanalmish ot bilan xuddi 11 kabi munosabatda bo'ladi. Lekin bosh kelishikda 2 soni اثنا/اثان shaklida, qaratqich va tushum kelishigida esa اثني/اثنتي shaklida ishlatiladi. Masalan: 12 ta uy sotib oldim. – اشتريتُ اثني عشرَ بيتاً.

c) 13 dan 19 gacha bo'lgan sonlar doimo tanvinsiz, tushum kelishigida bo'ladi. Son va sanalmish jins jihatidan faqat o'nlik son va sanalmish moslashadi, birlar xonasidagi son esa sanalmish bilan teskari jinsda turadi.

Eslatma! Bu yerda birlikdagi son teskari jinsda bo'lishi faqatgina sanalmishning birlik holatiga qarab, agar sanalmish birlikda muzakkar bo'lsa, muannas; sanalmish muannas bo'lsa, muzakkar shaklida teskari moslashadi.

20 dan ortiq qo'shma sonlar uyushiq bo'laklar kabi va bog'lovchisi orqali birikadi va mustaqil so'zlar kabi kelishiklarda turlanadi:

B.k: واحدٌ وعشرون، ثلاثة وأربعون، تسعٌ وتسعون

Q.k: تسعٌ وتسعين، ثلاثة وأربعين، واحدٌ وعشرين

T.k: تسعاً وتسعين، ثلاثة وأربعين، واحداً وعشرين⁴

Eslatma! 10, 20, 30 kabi o'nlik sonlarning muannas shakli yo'q. Doimo bir xil -una qo'shimchasi bilan yasaladi va ishlatiladi.

Agar qo'shma sonlar tarkibida 1 va 2 sonlari kelsa, ular sanalmish bilan jinsda moslashadi, lekin 3–9 sonlar sanalmishning teskari jinsida bo'ladi. Albatta, sanalmishning birlikdagi jinsiga teskari jinsda.

d) 31, 41, 51 kabi sonlarda, odatda, 1 soni uchun واحدة و واحد shakli ishlatiladi. O'nlik va birlik sonlar o'zaro va (و) bog'lovchisi yordamida birikadi.

e) 11-99 sonlar bilan kelgan sanalmish esa, birlik, noaniq, tushum kelishigida keladi. Kelishikda turlanganda faqat son o'zgaradi. Sanalmish o'zgarmaydi. Masalan : 86 ta pero – ستٌ وثمانون ريشةً –

86 ta pero bilan – بستٌ وثمانين ريشةً –

86 ta peroni – ستٌ وثمانين ريشةً –

f) 100 va 1000 kabi sonlar sanalmish ot bilan izofa hosil qiladi. Sanalmish ot muzof ilayhi vazifasida kelgani uchun qaratqich, birlik, noaniq holatda bo'ladi. Masalan:

³ Mabniy – qotgan, oxirgi harakati o'zgarmas deganidir.

⁴ A.Abdujabborov. Arab tili. Darslik. T., 2005.

100 ta qalampir – مئة شطّة

Son esa tanvin olmaydi, chunki u muzof vazifasida kelyapti.

g) 200, 2000 kabi yaxlit sonlar ham yuqoridagidek hosil qilinadi, ammo ularning ikkilik shakli olinadi. Masalan: 200 ta qilich – مئتا سيف

200 ta qilichni – مئتى سيف

h) 300–1000 gacha bo'lgan yaxlit sonlarda yuz soni sanalmish bo'ladi, birlikda noaniq, qaratqich kelishigida keladi. Masalan: 300 – ثلاثة مئة

400 – أربعة مئة

500 ta talaba – خمسمئة كالب

Agar e'tibor berilsa, 500 ta talaba deganda yuz so'zi tanvin olmagan, chunki u 5 so'ziga nisbagan muzof ilayhi bo'lsa, bir vaqtning o'zida sanalmish, ya'ni talaba so'zi uchun muzof vazifasini bajaryapti. Shuning uchun u tanvinsiz yoziladi.

Yuzlik sonlar birlik va o'nlik sonlar bilan aralashib, murakkabson hosil qilsa, avval yuzlik, keyin birlik va so'ngida o'nlik yoziladi. Sanalmish xuddi 11-99 bo'lgan sonlardagi qoida bilan bir xil bo'ladi.

Yaxlit sonlardan keyin birlikdagi sonlar kelsa, quyidagicha qo'shiladi: 101 qalam – مئة قلام و قلام

1001 kecha – ألف ليلة و ليلة

Bundan tashqari, son sanalmish bilan مِنْ ko'makchisi vositasida bog'lanishi mumkin:

9 ta dehqon – تسعة فلاحين

Dehqonlarning 9 tasi – تسعة من الفلاحين

Xulosa shuki, sonlar arab tilida murakkab grammatik qoidalarga ega bo'lib, o'rganishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ularni oson o'zlashtirish uchun tizimli yondashuv va misollar asosida amaliy qo'llash muhim. Sonlarning to'g'ri ishlatilishi tilning ravonligi va aniq ifodalanishida katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, sonlarning grammatikasini o'rganish tilni chuqur tushunishga yordam beradi va turli kontekstlarda ularning to'g'ri qo'llanilishi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Ibrohimov va M.Yusupov. Arab tili grammatikasi I jild. O'quv qo'llanma. T., 1997.
2. A.Abdujabborov. Arab tili. Darslik. T., 2005.